

**O'ZBEKISTONDA SUV RESURSLARI MUAMMOSINI OLDINI OLISH AHOLI
UCHUN ZARURIY MASALA****Bobojonov Nurimon Shaxriyor o'g'li**

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, talabasi

nurimonbobojonov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda O'zbekistonda suv va unga bo'lgan talab, suv resurslaring kamayib borishini oldini olish uchun qilinayotgan ishlar kabi masalalar ekologik muammolarning biriga aylanib bo'lganligi va buni oldini olish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Gidrotexnik, energiya, sarf, magistral, resurs, meliorativ, texnik, modernizatsiya, obyekt.

Abstract: The article analyzes the fact that today in Uzbekistan water and its demand, the work being done to prevent the depletion of water resources, has become one of the environmental problems and the issues of preventing it.

Key words: Hydraulic engineering, energy, consumption, highway, resource, reclamation, technical, modernization, object.

Аннотация: В статье анализируется тот факт, что сегодня в Узбекистане вода и ее потребность, проводимая работа по предотвращению истощения водных ресурсов стали одной из экологических проблем и вопросов ее предотвращения.

Ключевые слова: Гидротехника, энергетика, потребление, автодорога, ресурс, рекультивация, техническая, модернизация, объект.

Kirish. O'zbekiston geografik jihatdan suv manbaiga to'liq ega emasligi insonlar va ekoliya uchun ko'plab salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi tabiiy. Chunki bugungi kunda suv zaxiralarning kamayishi, suv tanqisligi global muammolaridandir. Mutaxassislarining fikricha, yaqin kelajakda O'zbekistonda ham suv tanqisligi kuzatiladi. Bu O'zbekiston aholisi uchun o'ta xavotirli holat. Aholi sonining o'sishi, yaxshi yashashga bo'lgan intilish esa yildan yilga suvgaga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda.

Asosiy qism. Ma'lumki foydalilanayotgan suvning umumiyligi miqdori o'tgan asrning 80 – yillariga nisbatan yiliga 64 mlrd/m³ dan o'rtacha 51 mlrd/m³ (o'rtadagi farq – 13 mlrd/m³)gacha kamaytirildi. Istiqlolgacha bo'lgan davrda 1 hektar sug'oriladigan maydonga 10 – 11 ming/m³ suv ishlataligan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich 6 – 7 ming/m³ ni tashkil etadi.

Jami sug'oriladigan 4,3 mln. Gektar yer maydonini suv resurslari bilan ta'minlashda 180 ming km sug'orish tarmoqlari, 160 ming dona suv xo'jaligi inshootlari, shu jumladan 800 dan ortiq yirik gidrotexnik inshootlar, umumiyligi hajmi 19,2 mlrd/m³ bo'lgan 55 ta suv omborlari, yillik elektr energiyasining umumiyligi sarfi 8,2 mlrd/kVt quvvatga teng 1614 ta nasos stansiyalari, 4124 ta tik sug'orish quduqlari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'tgan asrning 80 – 90 – yillarida 4,0 mln hektar umumiy sug'oriladigan yerlardan 2,0 mln hektari (50 %) da paxta yetishtirilgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 1,2 mln hektarni yoki jami sug'oriladigan maydonlarning 30 foizini tashkil etadi.

Sholi maydonlari 180 ming hektardan 40 ming gektargacha kamaytirildi. Sug'oriladigan yerlarning boshqa qismini suvni kam talab qiladigan va inson yashashi uchun zarur bo'lgan boshoqli don, sabzavot, poliz va boshqa oziq – ovqat mahsulotlari egalladi.

Hozirda Respublikamizda 10 ta irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, 63 ta irrigatsiya tizimlari va magistral kanallar boshqarmalari faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, dehqon va fermer xo'jaliklari o'rtasida suv munosabatlarini tartibga soluvchi 1501 ta Suv iste'molchilar uyushmalari tashkil etildi. Ma'lumki, Respublikamiz hududida 11,47 km³ miqdorda ichki suv resurslari shakllanib, shundan 4,82 km³ – Amudaryo havzasiga, 6,65 km³ – Sirdaryo havzasiga to'g'ri keladi. Qolgan 80 foizdan ortig'i esa, transchegaraviy suv resurslari hisobiga to'ldiriladi. Umuman, mamlakatimiz iqtisodiyotida jami ishlatilayotgan suvlarning 88 foizi qishloq xo'jaligi xissasiga to'g'ri keladi, qolgani – maishiy xizmat ko'rsatish sohasi – 8 foiz, energetika – 1,5 foiz, sanoat – 2 foiz, baliqchilik – 0,5 foizni tashkil etadi. Bunday holat o'z – o'zidan mavjud suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni tashkil etish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligi inshootlari texnik holatini yaxshilash va ularni modernizatsiya qilish, suvni tejash texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etish, suv xo'jaligi tashkilotlarining texnik bazasini mustahkamlash, suv iste'molchilar uyushmalari faoliyatini yanada yaxshilash, soha mutaxassislarining malakasini oshirishga qaratilgan islohotlarni taqozo etadi.

O'zbekistonda kutilayotgan suv tanqisligi oqibatlarini yumshatish maqsadida quyidagi ishlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Iste'molchilar tomonidan suvdan samarali foydalanish;

Aholi orasida suvdan foydalanish madaniyatini targ'ib qilish;

Irrigatsiya tizimlaridagi qoidabuzarlik holatlarining oldini olish va aniqlangan holatlar yuzasidan ta'sirchan choralar ko'rinishini ta'minlash;

Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini tomchilatib sug'orish texnologiyalari bilan qamrab olish va mavjud suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

Mavjud sug'orish va kollektor – drenaj tarmoqlari bo'yicha qat'iy monitoring olib borish tizimini yo'lga qo'yish;

Sug'orish maydonlari uchun suv olish limitlarini belgilash;

Suv omchorlaridagi suv resurslaridan foydalanishni to'liq nazoratga olish, ayniqsa, yirik suv omchorlaridan suv chiqarish va nasos stansiyalaridan foydalanishni qat'iy ravishda aniq hisob – kitoblarga asoslangan talabnomalar bo'yicha amalga oshirish.

O'zbekistonning suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi normativ hujjatida fuqarolar e'tibor berishi kerak bo'lgan zaruriy atamalar keltirilgan. Ularni ayrimlarini eslatib o'tsak:

Suv obyektlarini muhofaza qilish suv obyektlarini saqlash va tiklashga qaratilgan tadbirlar tizimi;

Suv rejimi suv obyektlari va tuproq – grunta suv sathi, tezligi, sarfi va hajmining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi;

Suv resurslari foydalaniladigan yoki foydalanishi lozim bo‘lgan suv obyektlari suvlari;

Inson suvdan foydalanishida ekologik omillar ham mavjud bo‘ladi. Ekologik omillar atrof – muhitning organizmlar faoliyatiga o‘ziga xos ta’sir etuvchi ma’lum sharoitlari va elementlari majmui. Ekologik omillar 2 katta guruh abiotik va biotik omillarga bo‘linadi. Ekologiyada “Cheklovchi omillar” tushunchasi ham mavjud, ular tarkibiga organizmlar mavjudligi va rivojlanishini cheklovchi har qanday omilni kiritish mumkin. Tirik organizmlarga ta’sir etuvchi muhitning har qanday bo‘laklari ekologik omillar deyiladi. Muhit quruqlik, suv, havo va yer osti qismlaridan iborat. Tashqi muhit tushunchasidan tashqari yashash sharoitlari degan tushuncha ham mavjud bo‘lib, bu tushunchaga organizmning yashashi uchun zarur bo‘lgan elementlar yoki omillardan yorug‘lik, issiqlik, suv, oziqlanish va shu kabilar kiradi. Demak, suvdan unumli foydalanishda suvning ekologik jihatdan ko‘p miqdorda sarflanishi, sifat ko‘rsatkichlarining tushib ketishini ham oldini olish lozim ekanligi ko‘rinib turibdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda yuzaga kelayotgan suv tanqisligi muammosini faqatgina insonlarning suvgaga nisbatan bo‘layotgan oqilona munosabatlari orqaligina bir oz bo‘lsada bartaraf etish mumkin. Suv resurslarini asrash butun O‘zbekiston aholisining burchi ekanligini unutmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 10 - iyuldagisi “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 - yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 6024 – sonli farmoni. Toshkent, 2020.
2. Barayev F.A., Serikbayev B.S., Mamasoliyev A.B va boshqalar. Suv resurslari va suvdan tejamli foydalanish. Toshkent, 2014.
3. Ikromjonovna, J. S. (2023). The role of folk tales and epic motives in the poetry of usman azim. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
4. Urunov I. “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi faoliyatlar”. -T.: 2010.
5. Internet saytlari.